O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI JORIY ETISHNING ZARURATI VA IQTISODIY SHART-SHAROITLARI

Isroilova Zarina Ismoil Qizi
Toshkent viloyat sudining sudya katta yordamchisi
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik Oliy maktabi
MBA-Moliya magistratura bosqichi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19810961

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistonda islom moliyasini joriy etishning dolzarbligi, uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati hamda amaliy tatbiqi uchun mavjud shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Jahon moliya tizimida islom moliyasining barqaror o‘sishi va inqirozlarga nisbatan chidamliligi fonida, mazkur tizimni milliy iqtisodiyotga integratsiya qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda O‘zbekistonda aholining diniy qadriyatlari, moliyaviy inklyuziya darajasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash zarurati asosiy omillar sifatida yoritilgan. Shuningdek, mamlakatda islom moliyasini rivojlantirish uchun huquqiy-me’yoriy baza, institutsional infratuzilma va kadrlar salohiyatini shakllantirish muhimligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *islom moliyasi, shariatga muvofiq moliyalashtirish, moliyaviy inklyuziya, investitsiya muhiti, iqtisodiy rivojlanish, bank tizimi, sukuk, islom bankchiligi, huquqiy baza, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, islomiy bank faoliyati, murabaha, sukuk, shariat kengashi, real sektorni moliyalashtirish, moliyaviy barqarorlik, xalqaro hamkorlik, Islom taraqqiyot banki, iqtisodiy rivojlanish.*

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda islom moliyasini joriy etish bo‘yicha amaliy qadamlar tashlanmoqda. Xususan, Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlik kengaytirilgan, shuningdek, ayrim tijorat banklari tomonidan islomiy moliyalashtirish tamoyillariga yaqin bo‘lgan mahsulotlar pilot tarzda taklif etilmoqda[1]. Bundan tashqari, 2025–2026 yillarda bank qonunchiligini takomillashtirish va islomiy moliyalashtirish xizmatlari uchun normativ-huquqiy asos yaratish yuzasidan takliflar ishlab chiqilmoqda.

Jumladan, joriy yilning 27 martida O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan “**O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”**gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (O‘RQ-1126-son) qabul qilindi.

Ushbu Qonun Markaziy bank tomonidan mahalliy va xorijiy ekspertlar bilan birgalikda sohaga oid xalqaro standartlar hamda ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, Qonun bilan Soliq va Fuqarolik kodekslari hamda 7 ta qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Xususan, ushbu Qonun bilan: qonunchilikka islomiy bank faoliyati, islomiy moliya operatsiyalari, islomiy moliya standartlari hamda investitsiyaviy omonat (depozit) tushunchalari

[1] https://www.isdb.org/ (O‘zbekiston Respublikasi va Islom taraqqiyot banki o‘rtasidagi hamkorlik doirasidagi rasmiy ma’lumotlar hamda so‘nggi yillardagi moliyaviy loyihalar materiallari)

kiritilmoqda; islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya joriy qilinib, mazkur litsenziyani olish bo‘yicha aniq talablar o‘rnatilmoqda; islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega banklar tomonidan amalga oshiriladigan islomiy moliya operatsiyalari ro‘yxati keltirilmoqda; islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklarga bevosita savdo faoliyatini amalga oshirishga hamda yuridik shaxslarni tashkil etish va yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi ulushlarni yoki aksiyalarni cheklovlarsiz olishga ruxsat berilmoqda; islomiy moliya faoliyati bilan bog‘liq masalalarni muvofiqlashtirish maqsadida Markaziy bank va banklarda islomiy moliya kengashini tashkil etish hamda uning faoliyatiga doir talablar belgilanmoqda. Bundan tashqari, islomiy moliya operatsiyalariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari belgilab berilmoqda. *(Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran 3 oydan so‘ng kuchga kiradi)*

Bundan tashqari yangilangan “O‘zbekiston—2030” strategiyasi loyihasi doirasida mamlakatimizda 2030-yilga borib islomiy moliyaning huquqiy asoslarini yaratish hamda kamida 3 ta tijorat bankida islomiy moliya xizmatini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmoqda[2]. Loyihaga ko‘ra, dastlab 2027-yilda O‘zbekistondagi bitta bankda islomiy mahsulotlar joriy etiladi, 2029-2030-yillarda esa ularning soni uchtaga yetkaziladi.

2024-yil dekabrida O‘zbekiston Markaziy banki Islomiy moliyaviy xizmatlar kengashiga a’zo bo‘lgan. Mazkur tashkilotga a’zolik boshqa mamlakatlar tajribasini o‘rganish va O‘zbekistonda islomiy moliya institutlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish sohasida ilg‘or xalqaro tajribani joriy etish imkonini berdi. Shuningdek, 2025-yilning noyabr oyida O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini bosqichma-bosqich joriy qilishga qaratilgan qonun loyihasi qabul qilindi. Mamlakatimizda islom moliyasi joriy etilishi natijasida qariyb 10 milliard dollarlik investitsiyalar jalb qilinishi, 100 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilishi kutilmoqda.

Islom moliyasi foiz (ribo)ni taqiqlash, tavakkalchilikni adolatli taqsimlash, real aktivlar bilan ta’minlangan bitimlar tuzish va spekulyativ operatsiyalarni cheklash tamoyillariga asoslanadi. Bu esa moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiyotning real sektorini qo‘llab-quvvatlash hamda aholi mablag‘larini rasmiy moliya tizimiga jalb etish imkonini beradi. O‘zbekiston aholisi orasida islomiy moliyaviy xizmatlarga talab mavjudligi mazkur sohaning ijtimoiy ahamiyatini ham oshiradi.

Global iqtisodiy beqarorlik, inflyatsion bosim va moliya bozorlaridagi tebranishlar sharoitida O‘zbekistonda moliya tizimini diversifikatsiya qilish va muqobil instrumentlarni joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, islom moliyasi nafaqat diniy omil, balki iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy inklyuziya vositasi sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Muammolar

O‘zbekistonda islom moliyasini rivojlantirishda ham bir qator muammo va to‘siqlar mavjud bo‘lib, ular murabaha va boshqa islomiy instrumentlar bo‘yicha operatsiyalar uchun qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) va boshqa soliqlar an’anaviy kreditlashdan farqli tarzda hisoblanishi mumkin. Bu esa islomiy moliya xizmatlarini an’anaviy bank xizmatlaridan qimmatroq qilishi mumkin (Soliq kodeksi); Islomiy moliya tamoyillarini tushunadigan va amaliyotda qo‘llay oladigan mutaxassislar kam. Shariat kengashlari a’zolari, islomiy moliya maslahatchilari va murabaha operatsiyalarini boshqaruvchi mutaxassislar tayyorlash uchun maxsus ta’lim dasturlari kerak, hozircha O‘zbekistonda bunday ixtisoslashgan ta’lim dasturlari kam (*malakali kadrlar yetishmovchiligi*);

[2] https://xs.uz/uz/post/islom-moliyasi-khalqaro-tazhriba-amaliyotdagi-muammolar-va-kelazhakdagi-kutilmalar.

Ko‘pchilik islomiy moliya va an’anaviy moliya o‘rtasidagi farqlarni bilmaydi. Ba’zilar islomiy moliyani faqat diniy majburiyat deb o‘ylaydi, uning iqtisodiy afzalliklarini tushunmaydi. Boshqalar esa uni murakkab va qimmat deb hisoblaydi. Bu to‘siqlarni yengish uchun katta targ‘ibot va ta’lim ishlarini olib borish kerak *(aholining yetarli darajada xabardor bo‘lmasligi)*; Islomiy moliya uchun maxsus hisob kitob tizimlari, shariatga muvofiq clearing (to‘lov tafsilotlari) va settlement (mablag‘larni yakuniy o‘tkazmalari) tizimlari hamda likvidlik boshqaruv vositalari kerak. Mavjud bank infratuzilmasini *islomiy* tamoyillarga moslashtirish vaqt va mablag‘ talab qiladi *(infrastruktura va texnik tizimlar yetishmasligi).*

Taklif va tavsiyalar. O‘zbekiston sharoitida islom moliyasi tizimi shakllanishining nazariy asoslari va uning rivojlanish bosqichlari ko‘rib chiqilib, nazariy jihatdan yangi yondashuvlar taklif qilingan;

- ✓ O‘zbekiston sharoitida islom moliyasini bosqichma-bosqich joriy etishning huquqiy modelini ishlab chiqish;
- ✓ Shariat kengashi institutini tashkil etishning huquqiy maqomini belgilash;
- ✓ Islom taraqqiyot banki, ICD hamda ITFC bilan hamkorlikda qo‘shma dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali islomiy moliya vositalarini keng joriy etish hamda investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish;
- ✓ “Islom moliyasi to‘g‘risida” alohida Qonun qabul qilish (bank, sug‘urta va kapital bozorini qamrab olgan holda);
- ✓ Qishloq xo‘jaligi, qurilish va kichik biznes uchun maxsus islomiy moliya liniyalari yaratib, halol sanoat bilan moliyaviy integratsiyani yo’lga qo‘yish.

Xulosa

O‘zbekistonda islom moliyasini joriy etish iqtisodiy jihatdan asoslangan va istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan qonunchilik islohotlari hamda Islom taraqqiyot banki kabi xalqaro institutlar bilan hamkorlik ushbu tizimni shakllantirish uchun muhim zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, soliq tizimidagi nomutanosibliklar, malakali kadrlar yetishmovchiligi va infratuzilma muammolari mavjudligini inobatga olgan holda, islom moliyasini bosqichma-bosqich joriy etish, alohida huquqiy bazani shakllantirish va xalqaro standartlarni amaliyotga tatbiq etish zarur. Natijada, islom moliyasi mamlakatda investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va real sektorni qo‘llab-quvvatlashning samarali vositasiga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” (O‘RQ-1126-son) Qonuni, 2025-yil 27-mart.
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Rasmiy ma’lumotlar va yillik hisobotlar (2025–2026-yillar).
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Islomiy moliya va bank faoliyatini joriy etish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar va axborot materiallari.

7. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi (yangilangan tahrir loyihasi).
8. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Moliyaviy sektorni rivojlantirish bo‘yicha tahliliy hisobotlar.
9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Islomiy moliya xizmatlarini rivojlantirish konsepsiyasi bo‘yicha materiallar.